



Nur-Qashqadaryo Quyosh fotoelektrik stantsiyasi va elektr energiyani saqlash tizimi (EEST)

**Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (EITB):
1-Jild - Notexnik hisobot**

Konsalting Firmasi:

Juru

Juru Ltd

Suite 1, One George Yard, London,
United Kingdom, EC3V 9DF
www.juruenergy.com

Tayyorlangan:

MASDAR 

Masdar Clean Energy

Khalifa City A,
Abu Dhabi, UAE, P.O. Box 54115
www.masdar.com

Hujjat Ma'lumotlari

Loyiha nomi	Nur-Qashqadaryo FE loyihasi
Hujjat nomi	Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholash (AITB) – 1-jild – Notexnik Hisobot
Juru loyihasiga havola	UZB-MAS-Guzar PV&BESS ESIA
Mijoz	Masdar Clean Energy
Juruning Loyiha menejeri	Nicola Davies
Juruning Loyiha direktori	Jushqinbek Ismoilov

Hujjat Nazorati

Versiya	Sana	Tavsif	Muallif	Taqrizchi	Tasdiqlovchi
1.0	Iyul 2024	AITB Loyihasi: 1 Jild – NTH (oshkor qilish uchun)	Turli	Marianne Lupton	Nicola Davies
2.0	Avgust 2024	AITB Loyihasi: 1 Jild – NTH (yangilangan oshkor qilish ma'lumoti)	Turli	Marianne Lupton	Nicola Davies
3.0	Avgust 2024	AITB Loyihasi: -mijozlarning sharhlarini kiritish uchun yangilandi (sharhlar-kuzatuvchisi 22/08/2024)	Turli	Marianne Lupton	Nicola Davies
4.0	Oktyabr 2024	Oshkor qilish uchun yakuniy loyiha – Kreditorlarning izohlari bilan yangilandi	Turli	Marianne Lupton	Nicola Davies
4.1	Noyabr 2024	4.15-bo'lim va 4.13-bo'limdagi qoldiq ta'sirlar	Turli	Marianne Lupton	Nicola Davies
4.2	05 Mart 2025	Moliyalashtiruvchi tomonlarning barcha izohlarini inobatga olgan yakuniy loyihaviy nusxa.	Turli	Marianne Lupton	Nicola Davies
4.3	23 Aprel 2025	Oshkor qilish uchun taqdim etildi	Turli	Marianne Lupton	Nicola Davies

Javobgarlikdan voz kechish bayonoti

Notexnik Hisobot ("Hisobot") Juru Energy tomonidan tayyorlandi. Hisobotda mavjud bo'lgan ma'lumotlar hozirgi holatni aks ettirsa ham, Juru Energy ushbu Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga to'g'risida aniq yoki nazarda tutilgan hech qanday bayonot yoki kafolat bermaydi va noto'g'ri yoki o'tkazib yuborilishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumot uchun javobgar bo'lmaydi.

Ushbu hisobot faqat Masdar uchun tayyorlangan. Masdar ushbu Hisobotdagi ma'lumotlarning to'g'riligi yoki to'liqligi bo'yicha aniq yoki nazarda tutilgan hech qanday bayonot yoki kafolat bermaydi. Masdat ushbu Hisobotdagi ma'lumotlarni mustaqil ravishda tekshirmagan va undagi noto'g'ri yoki o'tkazib yuborilishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumot uchun javobgar bo'lmaydi. Hisobot Masdar mulki bo'lib qoladi.

Mundarija

1. Kirish	11
1.1 Loyiha haqida umumiy ma'lumot.....	11
2. Loyihaning tavsifi	12
2.1 Loyihaga ehtiyoj.....	12
2.2 Muqobil variantlar	12
2.3 Loyiha Joylashuvi	13
2.4 Loyiha komponentlari	17
2.5 Loyiha tadbirlari.....	19
2.6 Yerga bo'lgan talablar	21
2.7 Mehnat talablari	22
2.8 Jadval	22
3. Baholash yondashuvi	23
3.1 Huquqiy va Siyosiy Asoslar	23
3.2 Baholash metodologiyasi	24
3.3 Manfaatdor tomonlarni jalb qilish.....	25
3.4 Shikoyat mexanizmi (ShM)	28
4. Atrof-muhit va ijtimoiy baholashning qisqacha mazmuni	31
4.1 Qisqacha tavsifi.....	31
4.2 Ijobiy ta'sirlar va yaxshilanishlar	32
4.3 Mehnat, ta'minot zanjiri boshqaruvi va ishchilar salomatligi va xavfsizligi	32
4.4 Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va unga javob berish	34
4.5 Iqlim o'zgarishiga bardoshlilik va moslashish	34
4.6 Qurilish noqulayligi (shovqin, havo sifati)	35

4.7 Xavfli materiallar va chiqindilarni boshqarish	35
4.8 Tuproqlar, gidrogeologiya va yer osti suvlarining sifati.....	36
4.9 Suv resurslarini boshqarish (shu jumladan yer osti suvlari) va suv sifati	37
4.10 Yerga bo'lgan talablar	39
4.11 Jamiyat salomatligi, xavfsizligi va muhofazasi	40
4.12 Yo'l harakati va transport	41
4.13 Bioxilma-xillik.....	41
4.14 Madaniy meros.....	43
4.15 Foydalanishdan chiqarish.....	44
4.16 Boshqa ta'sirlar.....	44
5. Ta'sirlarni yumshatish, boshqarish va monitoring qilish	44
6. Xulosa	47

Jadvallar

Jadval 1: Loyiha jadvali.....	23
Jadval 2: Shikoyatlarni ko'rib chiqish muddatlari	30
Jadval 3: Shikoyat qilish uchun aloqa ma'lumotlari.....	30
Jadval 4: AITB da baholangan xavf va ta'sirlar.....	31
Jadval 5: Suvni tahlil qilish natijalari.....	38

Rasmlar

Rasm 1: Loyihaning Joylashuvi	14
Rasm 2: Loyihani joylashuvi (aerofotosurat ko'rinishi)	15
Rasm 3: Loyihani joylashuvi (xarita ko'rinishi)	16
Rasm 4 : FE jarayoni haqida umumiy ma'lumot (XMK, 2015 dan olingan).....	17
Rasm 5: FE panellari.....	18
Rasm 6: FE kuzatish tizimi va invertorlar (Bir o'qli kuzatuv moslamasi quyoshni sharqdan g'arbga bir nuqtada kuzatib boradi) NEXTracker)	18
Rasm 7: Akkumlyatorlar uchun konteyner (ichki)	18
Rasm 8: Odatiy EEST konteyneri (tashqi):	18

Qisqartmalar

Qisqartma	Tavsifi
OTB	Osiyo Taraqqiyot Banki
TD	Ta'sir doirasi
EEST	Energiya saqlash akkumulyator tizimi
BFD	Qush yo'naltiruvchi moslama
FK	Fuqarolik Kodeksi
JSX	Jamiyat salomatligi va xavfsizligi
JABM	Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis
DBFOMT	Loyihalash, qurish, moliyalashtirish, ta'minlash, ishga tushirish va foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish va uzatish
DT	Doimiy tok
YeTTB	Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki
ASX	Atrof - muhit, Sog'liq va Xavfsizlik
ATB	Atrof-muhitga Ta'sirini Baholash
MXQ	Muhandislik, xaridlar va qurilish
A&I	Atrof-muhit va ijtimoiy
FVTHR	Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va unga javob berish rejasi
AIHR	Atrof-muhit va ijtimoiy harakatlar rejasi
AITB	Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholash
AIBR	Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi
AIS	Atrof-muhit va ijtimoiy siyosat
JZT	Jinsga asoslangan zo'ravonlik va ta'qib
IG	Issiqxona gazi
YXSA	Yaxshi Xalqaro Sanoat Amaliyoti
ShM	Shikoyatlar mexanizmi
SXIABT	Sog'liq, Xavfsizlik, Ijtimoiy va Atrof-muhitni boshqarish tizimi
XMK	Xalqaro moliya Korporatsiyasi
XMT	Xalqaro Mehnat Tashkiloti
JE	Juru Energy
TTTR	Turmush tarzini tiklash rejasi
YK	Yer Kodeksi
LILO	Ikki tomonlama uzatish liniyasi
MCHJ	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
O'zREAMIO'V	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi
BR	Boshqaruv rejasi
O'MET	O'zbekiston Milliy Elektr Tarmoqlari
NTH	Notexnik hisobot
F&TX	Ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish
MSX	Mehnat salomatligi va xavfsizligi
HEUL	Havo elektr Uzatish Liniyasi
LTJ	Loyiha ta'siridagi jamoalar
BUX	Bioxilma-xillikning ustuvor xususiyati
EQSB	Elektr quvvatini sotib olish to'g'risidagi bitim
SHV	Shaxsiy himoya vositalari
IT	Ish yuritish talablari

Qisqartma	Tavsifi
IS	Ish yuritish standarti
FE	Fotoelektr
ST	Servitut
SanPiN	O'zbekiston sanitariya qoidalari va normalari
MJR	Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi
SMZ	Sanitariya muhofazasi zonasi
IJSRDQ	Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish davlat qo'mitasi
BMT	Birlashgan Millatlar tashkiloti

KIRISH

MASDAR 
*Missiya "Tanlangan
hamkor sifatida global
toza energiya ishlab
chiqaruvchisi bo'lish"*
*Biz mijozlar va
jamoalarning
ehtiyojlariga
qondiramiz"*

Abu Dhabi Future Energy Company PJSC ("Masdar") O'zbekiston Hukumati Energetika vazirligi tomonidan e'lon qilingan quvvati 300 MVt_A bo'lgan Nur Qashqadaryo Quyosh fotoelektr stantsiyasi (FE) loyihasi va quvvati 75 MVt / 75 MVts bo'lgan Energiya saqlash akkumulyator tizimini (EEST) ("Loyiha") loyihalash, qurish, moliyalashtirish, ta'minlash, ishga tushirish va foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish hamda uzatish (DBFOMT) bo'yicha tenderni yutdi. Loyiha "Nur-Kashkadarya Solar PV" MChJ xorijiy korxonasi va "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" AJ ("O'MET") o'rtasida uzoq muddatli, ya'ni 25 yil mobaynida elektr quvvatini sotib olish shartnomasi ("EQSB") asosida amalga oshiriladi.

Masdar Loyiha uchun Atfor-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholash (AITB) o'tkazish uchun Juru MChJni (JE yoki AITB maslahatchisi) tayinladi.

Ushbu hujjar notexnik hisobot (NTH) bo'lib, AITB jarayonining asosiy ma'lumotlari va natijalarini umumlashtirishga qaratilgan. Ushbu NTH ning maqsadi atrof-muhit va ijtimoiy (A&I) va jamoatchilik bilan maslahatlashish jarayonining natijalari va xulosalarini aniq va sodda bayon qilishdir.

AITB loyihasi to'g'risidagi ma'lumotlar 2024 yil iyul oyida mas'ul tashkilotlar, yerdan foydalanuvchilar va loyihaga eng yaqin aholi punktlari aholisi bilan jamoat yig'ilishlari va guruh uchrashuvlari doirasida oshkor qilindi. Oshkor qilishda AITB loyahasining natijalarini bayon qildi. Bundan tashqari, broshyuralar manfaatdor tomonlarga topshirildi. NTH yakuniy loyahasining ingliz, rus va o'zbek (ushbu hujjat) tillaridagi nusxalari ko'rib chiqish uchun quyidagi tashkilotlarga taqdim etildi va Moliyalashtiruvchi tomonlar hamda Masdar veb-saytlarida joylashtirilgan:

- G'uzor va Qamashi hokimliklari
- Oynakul, Batosh, Yangiobod va Xalqobod jamoat idoralari

Savollar yoki sharhlar quyida keltirilgan kanallar orqali ham hal qilinishi mumkin.

Kompaniya	Aloqa ma'lumotlari
Juru Energy Viktoriya Filatova - Katta Maslahatchi	Email: o.khegayv.filatova@juru.org Telefon: +998 71 202 0440, +998 90 941 43 71
Juru Energy Zarina Gafurova - Ijtimoiy masalalar bo'yicha maslahatchi	Email: z.gafurova@juru.org Telefon: +998 90 935 74 48
Loyiha Kompaniyasi JABM Namoz Axmedov	Email: nakhmedov@masdar.ae Telefon: +998948418983

Loyiha kompaniyasi "Gross Plaza" Biznes markazi, 100060, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shaxri, Mirobod tumani Taras Shevchenko ko'chasi, 21a

Telefon raqami: +998978686860

1. Kirish

1.1 Loyiha haqida umumiy ma'lumot

300 MVt Nur Qashqadaryo Quyosh fotoelektr stantsiyasi (FE) loyihasi va 75 MVt quvvatga ega Energiya saqlash akkumulyator tizimi (“Loyiha”). Loyiha maydoniga yaqin joylashgan, taxminan 1578 metr masofadagi havo elektr uzatish liniyasi (HEUL) va yer osti kabelidan foydalangan holda mavjud 220 kV/500 kV G‘uzor podstantsiyasiga ulanishni nazarda tutadi. Kreditorlarning standartlariga muvofiq Loyiha uchun tegishli obyektlar mavjud emas.

AITB Milliy Qonunchilik, Xalqaro Moliya korporatsiyasi (XMK), Ish yuritish standartlari (IS), Osiyo Taraqqiyot Banki (ATB), Xavfsizlik siyosati bayonoti 2009 (XSB 2009), Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB), Atrof-muhit va ijtimoiy siyosat (AIS 2019), Ish yuritish talablari (IT) talablariga muvofiq, shuningdek, Ekvator IV Tamoyillarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan (keyinchalik ushbu NTH da kreditor standartlari sifatida eslatib o‘tilgan).

Kreditorlarning fikriga ko‘ra, loyiha B toifasiga kiradi. B toifali loyihalar atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirni baholash va tegishli hujjatlarni talab qiladi. Ushbu talabni bajarish uchun Atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirni baholash (AITB) tayyorlandi:

- I Jild: Notexnik hisobot (NTH) (ushbu hujjat)
- II Jild: Atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirni baholash (AITB)
- III Jild: Texnik ilovalar (jumladan, atrof-muhit va biologik xilma-xillik bo‘yicha asosiy hisobotlar, inson huquqlariga ta’sirini baholash va iqlim o‘zgarishi xavfini baholash).
- IV Jild: Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi (AIBR)
- V Jild: Shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmini (ShM) o‘z ichiga olgan Manfaatdor Tomonlar bilan Hamkorlik qilish rejasi (MTHR)
- VI Jild: Turmush tarzini tiklash rejasi (TTTR)

Masdarning vazifasi mahalliy va global miqyosda yuqori sifatli, barqaror va iqtisodiy jihatdan foydali toza energiya loyihalarini ishlab chiqish, investitsiya kiritish va yetkazib berishdan iborat. Masdar qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqaruvchi va investor sifatida o‘n yildan ortiq tajribaga ega. Kompaniya 40 mamlakatda faoliyat yuritadi va quyosh va shamol energiyasi bo‘yicha dunyoning eng muhim loyihalarini ishlab chiqqan va qayta tiklanadigan energiya bo‘yicha 20 GVt dan ortiq loyihalarga sarmoya kiritgan yoki sarmoya kiritish majburiyatini olgan. O‘zbekistonda Masdar 100 MVt quvvatga ega quyosh elektr stantsiyasi va turli ishlab chiqish bosqichlarida bo‘lgan yana

2,600 MVt quvvatga ega loyihalarga ega. Masdar kompaniyasi loyiha bilan har kuni ishlash uchun loyiha kompaniyasini ("Nur-Kashkadarya Solar PV " MCHJ XK) tashkil etadi.

2. Loyihaning tavsifi

2.1 Loyihaga ehtiyoj

O'zbekiston hukumati elektr energiyasi yetkazib berishni oshirishni maqsad qilib, 2020-2030-yillarda elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha bir qancha maqsad va yo'nalishlarni, jumladan, qayta

2030-yilga mo'ljallangan energetika sektori strategiyasi asosiy maqsad sifatida "qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish va kengaytirish hamda ularni yagona energiya tizimiga integratsiya qilish" (BDS18-237(F)) Yashil iqtisodiyotga o'tish "energiya va resurslar samaradorligini oshirish orqali energiyani toza ishlab chiqarish va taqsimlash" ga (BDS15-196(F)) yordam beradi.

tiklanuvchi energiya loyihalarini jadal rivojlantirishni belgilab beruvchi 2030-yilgacha Energetika strategiyasini qabul qildi. Loyiha O'zbekistonni quyidagi yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlaydi:

- Milliy tarmoqqa 300 MVt elektr energiyasini yetkazib berish (qo'shimcha 75 MVt saqlash quvvati)
- Uglerodli yoqilg'iga energiya bog'liqligini kamaytirish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish.
- Qayta tiklanadigan energetika maqsadlariga erishish.

2.2 Muqobil variantlar

Muqobil ulanish konsepsiyasiyalari, tartiblari va variantlari, jumladan, "hech narsa qilmaslik" varianti ko'rib chiqildi. Loyihadan voz kechish atrof-muhitga va ijtimoiy sohaga mumkin bo'lgan har qanday ta'sirning oldini oladi, biroq bu mamlakatning energetika sektori strategiyasi maqsadlariga va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish maqsadlariga erishishga to'sqinlik qiladi. O'zbekistonda FE rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha tanlov auksionining kengroq jarayoni doirasida energetika vazirligi tomonidan O'zbekiston Hukumati nomidan ishlab chiquvchiga imtiyozli maydon ajratildi. Maydonning dastlabki tanlovi loyiha bo'yicha auksion savdosiga tayyorgarlik ko'rish uchun xalqaro maslahatchilar ko'magida amalga oshirildi. Maydon AITB jarayonida hudud orqali o'tadigan mavjud kommunal xizmatlar bilan kesishmalarni (o'tish joylarini) minimallashtirish va energiya ishlab chiqarishni maksimal darajada oshirish va yer egalariga, mavjud tog'-kon konsessiyalariga va boshqa obyektlarga, masalan, maydon chegaralarida bo'lsa-da, loyiha infratuzilmasi tomonidan chetlab o'tiladigan vaqtinchalik

drenaj kanallariga ta'sirini minimallashtirish o'rtasidagi eng yaxshi muvozanatga erishish uchun yanada optimallashtirildi.


Barcha holatlarda turar-joy binolari uchun majburiy Sanitariya muhofazasi zonasi (SMZ yoki chekinishlar) quyidagicha kuzatiladi: (HEUL- 60 m umumiy SMZ, gaz quvuri-300 m SMZ).

Ichki FE panellarning joylashuvi va loyiha tarkibiy qismlarining loyihasi bo'yicha yakuniy qarorlar loyihani qurish uchun tanlangan Muhandislik, xaridlar va qurilish (MXQ) pudratchisi tomonidan o'zgartirilishi mumkin. Ushbu AITB qurilish pudratchining loyihasiga kiritilishi kerak bo'lgan aniq yumshatish choralarini belgilaydi.


2.3 Loyiha Joylashuvi

Loyiha (shu jumladan FE infratuzilmasi, EAST, kirish yo'li va elektr tarmog'iga ulanish) 733 gektar maydonni egallaydi va mavjud 220 kV/500 kV G'uzor podstantsiyasiga bevosita ulanadi. Loyiha O'zbekistonning G'uzor va Qamashi tumanlarida (Shahrisabz shahridan 55 km janubi-g'arbda va Qashqadaryo viloyatidagi G'uzor shahridan 12 km shimoli-sharqda) joylashgan. Maydoning shimoliy chegarasiga to'g'ridan-to'g'ri parallel ravishda Shahrisabz va G'uzor o'rtasida M39 mintaqaviy yo'li o'tadi. G'arbda mavjud 220kV/500kV G'uzor podstantsiyasi joylashgan. Qashqadaryo O'zsuvta'minot tomonidan boshqariladigan suv quvuri (Yakkabog'-G'uzor) M39 trassasiga parallel ravishda o'tadi va kirish yo'li qurilishi davrida kesib o'tish kerak. Mavjud gaz quvuri tarmoq ulanishi (HEUL) va yangi kirish yo'li bilan kesishishi kerak. Barcha kesishmalar tegishli mas'ul organlarning talablariga muvofiq amalga oshiriladi, ularni AITB ilovalarida topish mumkin. Eng yaqin aholi punktlari G'uzor tumanidan Yangiobod, Xalqobod va Batosh, Qamashi tumanidan Oynakul (1-rasm, 2-rasm, 3-rasm).


Rasm 1: Loyihaning Joylashuvi



Rasm 2: Loyihani joylashuvi (aerofotosurat ko'rinishi)




Rasm 3: Loyihani joylashuvi (xarita ko'rinishi)



2.4 Loyiha komponentlari

Fotoelektr (FE) energiyasi quyosh radiatsiyasini doimiy elektr energiyasiga aylantirish orqali quyosh nurini elektr energiyasiga aylantirish uchun quyosh panellardan foydalanadi. FE inverterlari doimiy tokni past kuchlanishdan (LV) o'rta kuchlanishga (MV) ko'tarish uchun transformatorlar orqali o'zgaruvchan tokka aylantiradi. Keyinchalik ishlab chiqarilgan quvvat 35 kVt o'rta kuchlanishli (MV) yer osti tarmog'i orqali 35/220 kVt podstantsiyaga yo'naltiriladi. Jarayonning umumiy ko'rinishi quyidagi 4 Rasmda keltirilgan.

Rasm 4 : FE jarayoni haqida umumiy ma'lumot (XMK, 2015 dan olingan¹)



Loyihaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar:

- 578,088 FE modullari (yarim kesilgan monokristalli kremniy texnologiyasi).
- Bir o'qli kuzatuv moslamasi, inverterlar va transformatorlar;
- 27 konteynerdan iborat lityum-ion fosfat (LFP) elektr energiyasini saqlash tizimi (EEST).
- Mavjud 500 kV "G'uzor podstantsiyasiga" HEUL kombinatsiyalangan kabeli va maydonning g'arbiy tomonidan podstantsiyaning shimoli-g'arbiy tomoniga yer osti

¹ Yirik miqyosdagi quyosh fotoelektr stantsiyalar: Loyiha ishlab chiquvchilari uchun qo'llanma

kabeli orqali 220 kV ulanish (umumiy uzunligi 1,578 m: HEUL uchun 658 m va yer osti kabeli uchun 915 m)

- Ikki transformatorli yangi 35/220 kV podstantsiya;
- Maydondagi binolar, shu jumladan operativ boshqaruv markazi, ofis, xizmat xonalari, qo'riqxona, omborlar va do'konlar;
- M39 trassasidan yangi kirish yo'li (Yakkabog'-G'uzor suv quvurini kesib o'tadi);
- Maydonning tabiiy drenaj tizimi.

5 - 8 rasmlarda loyihaning odatiy komponentlari ko'rsatilgan.

Rasm 5: FE panellari



Rasm 6: FE kuzatish tizimi va invertorlar (Bir o'qli kuzatuv moslamasi quyoshni sharqdan g'arbga bir nuqtada kuzatib boradi) NEXTracker)



Rasm 7: Akkumlyatorlar uchun konteyner (ichki)



Rasm 8: Odatiy EEST konteyneri (tashqi)²:



² <https://energycentral.com/c/cp/large-battery-energy-storage-systems>

2.5 Loyiha tadbirlari

Loyihani ishlab chiqish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Tayyorlash bosqichi
 - Qurilish materiallarini maydonga tashish
 - Materiallarni saqlash joyini va ehtimoliy bojxona zonasini aniqlash.
 - Mahalliy ishchi kuchi / xizmatlarni yollash.
 - Mahalliy materiallar va yetkazib beruvchilarni aniqlash.
- Maydonni barpo etish
 - Vaqtinchalik turar joyni tayyorlash (agar kerak bo'lsa³)/ Mavjud turar joylarda loyiha hududidan tashqaridagi yashash ehtiyojlarini aniqlash.
 - Xaridlar
 - Qurilish bosqichi-qurilish ishlari
 - Xavfsiz maydon
 - Asosiy kirish yo'li va ichki kirish yo'llarini qurish
- Maydonni tozalash/qazish ishlari
 - O'simliklarni kesish
 - Poydevor ishlari (shu jumladan sement yetkazib berish)
 - Kabel xandaqlarini yotqizish (220 kV yer osti kabeli va past kuchlanishli kabellar uchun ichki xandaklar)
 - HEUL minorasi uchun qazish ishlari (minora poydevori)
 - Maydonga katta hajmdagi yuk va materiallarni tashish
 - Foydalanish omborlari va ta'mirlash uchastkasi binolarini qurish
 - Ish bilan ta'minlash imkoniyati
- Qurilish bosqichi-mexanik va elektr ishlari
 - FE/EEST infratuzilmasini o'rnatish
 - Kuzatuv tizimini joylashtirish uchun qazish ishlari
 - Podstantsiya qurilishi
 - Podstantsiya uskunalari o'rnatish
 - HEUL minoralarini o'rnatish
 - Ishga tushirish
- Ekspluatatsiya bosqichi
 - FE / EEST loyihasining ekspluatatsiyasi
 - Kundalik texnik xizmat ko'rsatish

³ Hozirda ishchilar loyihaning kengroq hududida (G'uzordan boshlab), Yangiobod, Xalqobod, Batosh va Oynakul mahallalarida, shuningdek, maydondan tashqarida maxsus qurilgan vaqtinchalik binolarda (joylashuv keyinroq aniqlanadi) mavjud turar-joylarga joylashtirilishi kutilmoqda. Hozircha vaqtinchalik turar-joy rejalashtirilmagan, ammo bu tanlangan qurilish pudratchisi tomonidan tasdiqlanadi.

- Davriy / rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish
- Monitoring
- Foydalanishdan chiqarish bosqichi (qurilish)
 - Qazilgan joylarni tiklash
 - Qurilish materiallarini olib tashlash
 - Vaqtinchalik saqlash va yashash joylarini tiklash

Loyihaning qurilishi loyihaning bir qismi, kirish yo'li va mavjud elektr tarmog'ining yo'nalishi bilan cheklanadi. Biroq, agar har qanday sababga ko'ra bu holat o'zgaradigan bo'lsa, qurilish davrida vaqtincha qo'shimcha yer maydonlaridan foydalanishga to'g'ri kelishi mumkin. Vaqtincha olinadigan yer maydonlari batafsil muhandislik loyihasi davomida aniqlanadi va bu maqsad uchun mos joy tanlanadi. Loyiha kompaniyasi ushbu yer maydonini ijaraga olish uchun to'g'ridan-to'g'ri bitim tuzishga harakat qiladi. Bu yerga nisbatan hech qanday majburiy foydalanish huquqlari qo'llanilmaydi.

Qurilish ishlarining asosiy turlari: obyektni tozalash (toshlar, kommunikatsiyalar, o'simliklar), transport vositalarining kirishini tashkil etish, qurilish ishlari (elektr tarmog'iga ulanish, podstantsiya va asosiy maydon), FE panellar va yordamchi uskunalar bilan ta'minlash, EEST, o'rnatish va ishga tushirish. Davomiyligi taxminan 12-18 oyni tashkil qiladi. Hududni obodonlashtirish va qurilish ishlari 2025-yilning avgust oylarida boshlanishi va to'rt oy davom etishi kutilmoqda, keyin sakkiz oydan o'n ikki oygacha qurilish va ishga tushirish ishlari olib boriladi va tijorat maqsadlarida foydalanish 2026-yilning bahoriga mo'ljallangan.

Materiallarni saqlash joyi maydonning asosiy chegarasida yaratiladi, agar qo'shimcha vaqtinchalik yer kerak bo'lsa, masalan, saqlash uchun, u yer egasi/yerdan foydalanuvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri kelishuv asosida ijaraga olinadi. Qurilish uchun zarur bo'lgan suv G'uzor shahar suv quvuridan olinadi, u qurilish maydonchasiga tsisterna orqali yetkazib beriladi va qisqa muddatli saqlash sisternalarda saqlanadi.

Hozirgi vaqtda rejalashtirilmagan bo'lsa-da, pudratchilar va subpudratchilarga loyiha hududidan tashqaridagi turar joylarni ijaraga olishga ruxsat beriladi, agar bu tanlash jarayoni Mehnat va mehnat sharoitlarini boshqarish rejasida bayon etilgan tartibda amalga oshirilsa hamda XMK va YeTTB tomonidan ishlab chiqilgan "Ishchilar uchun turar joy jarayonlari va standartlari" bo'yicha Yo'l-yo'riq hujjatida ko'rsatilgan talablarga javob bersa va ushbu EITBda belgilangan boshqaruv va chora-tadbirlar bilan muvofiq bo'lsa. Pudratchilar loyiha hududida vaqtinchalik maxsus qurilgan turar joylarni tashkil etishlari mumkin, garchi bu hozirda rejalashtirilmagan bo'lsa-da, EITBda bunday imkoniyat ko'zda tutilgan. Mahalliy qishloqlardan tashqaridagi turar joydan foydalanish afzal ko'riladi, biroq mahalliy qishloqlardagi turar joydan foydalanish ham taqiqlanmagan — agar u

XMK/YetTB tomonidan ishlab chiqilgan turar joy standartlariga javob bersa va undan oldin G'uzor va Qamashi tumanlarining ijtimoiy bo'limlari hamda mahalliy jamoa yetakchilari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilgan bo'lsa.

FE va EEST infratuzilmaning kutilayotgan foydalanish muddati 25 yil va EEST uchun o'n yilni tashkil etadi. Loyiha bo'yicha hisoblangan foydalanish muddati tugagandan so'ng, barcha infratuzilmani maydondan almashtirish, ta'mirlash yoki olib tashlash yoki O'MET ga o'tkazish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Qurilish tugagandan so'ng, HEUL va kabel liniyasi ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish uchun O'MET ga o'tkaziladi.

2.6 Yerga bo'lgan talablar

Loyiha hech qanday jismoniy ko'chishga olib kelmaydi. Hammasi bo'lib 733,09 gektar yer maydoni jalb ajratiladi:

- Loyihaning FE maydoni uchun 731 gektar,
- Minora poydevori maydoni uchun 0,028 gektar
- Kabel magistrali uchun 0,362 gektar (shu jumladan har tomondan 1 m xavfsizlikni chegarasini hisobga olgan holda)
- Kirish yo'li uchun 1,7 gektar (yo'l uzunligi taxminan 1700 m, servitut 10 m). Ushbu yer MMT orqali xususiy sherikka ijaraga beriladi.
- Qurilish bosqichida HEUL (havo elektr uzatish liniyasi) qurilishi bilan bog'liq vaqtinchalik yer olish ta'siri 1,67 gektar yer maydoniga taalluqlidir (~698 metr uzunlikdagi hudud bo'ylab har ikki tomonda 30 metrlik chekinish masofasi bilan).

Umuman olganda, loyiha doirasida iqtisodiy ko'chiriladigan 9 ta fermer xo'jaligi (8 ta fermerga tegishli) aniqlangan bo'lib, ularning ishchilari va chorvachilar ham hisobga olingan. Ular quyidagicha tasvirlangan:

- 7 ta fermer xo'jaligi, 1 ta XK va 1 ta MCHJ (F01-F09) barchasi fermer xo'jaliklari hisoblanadi (F03 va F08 fermer xo'jaliklari bir LTOUXga tegishli);
- 22 nafar ishchi (8 nafar mavsumiy ishchi va 14 nafar doimiy ishchi, ular o'zlari va boshqa shaxslar uchun yerda chorva boqadilar);
- 4 nafar chorvachi, loyiha hududidagi egalik qilinadigan va ijaraga olingan chorvani boqish uchun yer maydonidan foydalanadi;
- 22 ta chorva ijarachilari oilalari (ChIUX) bevosita ta'sir ko'rmaydigan, ammo chorvachilar orqali bilvosita ta'sirga uchraydiganlar sifatida hisoblanadi⁴;

⁴ Chorvachilar (LTOSH) ichida chorva egasi nomidan (yoki chorva ijarachilari oilasi — ChIUX) chorva boqadigan guruh mavjud. ChIUX chorvachilarga chorvani mol-mulk ko'rinishidagi to'lov evaziga ijaraga beradi. ChIUX chorvachilarga ijaraga berayotganligi sababli va chorvachilar o'zlari boqadigan chorva sonini kamaytirishga hojat yo'q, chunki ular uchun muqobil yer maydoni aniqlangan. Shuning uchun ChIUXlar bilvosita ta'sir ko'radiganlar sifatida hisoblanadi.

- Loyiha natijasida jami 28 ta xo'jalikdan⁵ 165 kishi ta'sir ko'radi, shuningdek, 22 ta ChIUX oilalari bilvosita ta'sirga uchraydi⁶.

Bundan tashqari, loyiha hududidan chorvachilar uchun boshpana, chorva uyi va ko'chma treyler kabi uchta inshoot olib tashlanadi.

Turmush tarziga ta'sirni baholash va Turmush tarzini tiklash rejasi (TTTR) yuqorida keltirilgan retseptorlarga ta'sirini hisobga oladi va Masdar qurilish boshlanishidan oldin milliy Qonunchilik va Kreditor standartlariga (IYS 5, IYT 5 va OTB QT2) muvofiq berilishi kerak bo'lgan kompensatsiya rejasini ishlab chiqdi. Yer egallash ta'sirlari uchun, ayniqsa fermerlar uchun kompensatsiya talab qilinadi va ishchi fermerlarning ish o'rinlarini yo'qotishi, chorvani boqish uchun yer ijarasi imkoniyatining yo'qolishi hamda chorvachilar uchun yerga kirish imkoniyatining yo'qolishini qoplash maqsadida Loyiha TTTRda turmush tarzini tiklash choralari belgilangan. Kelajakda qo'shimcha vaqtinchalik yer zarur bo'lsa, ushbu yerning joylashuvi Loyiha Sog'liqni saqlash, Xavfsizlik, Ijtimoiy va Atrof-muhitni boshqarish tizimi (SXIABT) doirasidagi yerga kirish tartibiga asosan belgilanadi. Ushbu qo'shimcha hududdagi barcha ishlar mavjud loyiha talablariga javob berishi kerak.

2.7 Mehnat talablari

Qurilishning eng yuqori davrida talab qilinadigan jami ishchi kuchi taxminan 600 nafarga yetishi mumkin (bu malakali xorijiy ishchilar hamda yarim malakali va malakasiz mahalliy ishchilardan iborat bo'lib, loyiha davomida kuniga o'rtacha 200 nafar ishchi ishlaydi). Zarur malakaga ega bo'lgan mahalliy aholini ish bilan ta'minlash ustuvor vazifa bo'lishiga qaramasdan, qurilish vaqtida malakasiz yoki yarim malakali vaqtinchalik ish uchun mahalliy ishchilarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlari cheklangan bo'lishi mumkin, ekspluatatsiya davrida esa undan ham kamroq bo'lishi mumkin.

2.8 Jadval

1-jadvalda AITB va loyihaning asosiy bosqichlari keltirilgan.

⁵ Eslatma: Ushbu PAHlar soni taxminiy hisoblanadi, chunki ba'zi PAHlar bilan maslahatlashish imkoni bo'lmagan yoki ular maslahatlashishni istamagan. PAPlar soni taxmin qilingan joylarda bu holat ushbu TTTRda ko'rsatilgan.

⁶ Agar ChIUXlar loyihaning ta'siriga uchragan bo'lsa, loyiha ularning da'volarini alohida-alohida ko'rib chiqadi va ta'sirlangan deb topilganda, ularning huquqlariga muvofiq kompensatsiya taqdim etiladi.

Jadval 1: Loyiha jadvali

Faoliyat	Sana
Ish hajmini aniqlash	Sentyabr 2023
Milliy ATB bo'yicha maslahat	2023 yil Oktyabr - 2024 yil Iyul
Milliy ATB taqdim etish	2024 yil Avgust oxiri
AITB dastlabki loyihasini taqdim etish	2024 yil Avgust oxiri
AITB ni yakunlash	Mart 2025
Yer shartnomalari / kompensatsiya va o'tish joylari bo'yicha ishlarni yakunlash	Mart 2025
Cheklangan ishni boshlash to'g'risida bildirishnoma	Iyun 2025
Moliyaviy yakunlash	Iyul 2025
Boshlash uchun xabarnoma	Avgust 2025
Tijorat Faoliyatining Sanasi	Dekabr 2026
Taxmin qilingan xizmat muddati	FE uchun 25 yil; EEST uchun 10 yil

Eslatma: aniqlik uchun, dastlabki bosqichda maydonni tayyorlash vaqtinchalik obyektlar, telekommunikatsiya uskunalari, ishchilar uchun turar-joy binolari, yo'llarni yaxshilash va hududni o'rab olishni o'z ichiga oladi. Quyosh panellari o'rnatiladigan maydondagi ishlar (shu jumladan tozalash, tekislash yoki quyosh panellari o'rnatiladigan maydondagi har qanday qazish ishlari) yoki fotoelektr energiya ishlab chiqarish infratuzilmasidagi har qanday ishlar maydondagi dastlabki ishlar deb hisoblanmaydi.

3. Baholash yondashuvi

3.1 Huquqiy va Siyosiy Asoslar

Loyiha Milliy me'yoriy-huquqiy baza va xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ish yuritish standartlari (IS) talablari, OTB 2009 Xavfsizlik siyosati bayonoti (XSB 2009), YeTTB Ishlash standartlari 2019 (IS) va Ekvator IV tamoyillarini hisobga olgan holda baholandi. Shuningdek, Jahon banki guruhining Atrof - muhit, Sog'liq va Xavfsizlik bo'yicha qo'llanmasi (ASX) (umumiy qo'llanma), xalqaro ekologik konvensiyalar, xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) asosiy mehnat konvensiyalari va Yaxshi Xalqaro Sanoat Amaliyotiga (YXSA) murojaat qilingan. XMK IS, OTB XSB 2009 va

YETTB IS ga muvofiq, biz ushbu loyihani B toifali loyiha sifatida ko'rib chiqamiz. Kreditor standartlari bilan belgilangan tegishli obyektlar aniqlanmagan.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, loyiha Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 541-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi va "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi qarorga muvofiq I toifaga kiradi va atrof-muhitga ta'sirni baholash bo'yicha milliy tadqiqot (ATB) va jamoatchilik muhokamasi natijalari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga (EAMIO'V) taqdim etilgan. 2024-yil 30-avgustda milliy ATB ning I va II bosqichlari bo'yicha ijobiy xulosa olindi.


3.2 Baholash metodologiyasi

AITB loyihaning atrof-muhitga va to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sir (TD) hududidagi jamoalarga potentsial A&I ta'sirini aniqlaydi va baholaydi. Ta'sirni baholashda kutilayotgan ta'sirning kattaligi va boshlang'ich tadqiqotlar va ma'lumotlarni yig'ish orqali aniqlangan retseptorlarning sezgirligini (fizik, madaniy, insoniy yoki biologik) hisobga oladi. Ushbu AITB va unga ilova qilingan hujjatlar 1-sxemada tavsiflangan bosqichlarga muvofiq tayyorlangan. Ta'sirning ko'lami quyidagilarni hisobga oladi:

- ta'sir turi va tabiati (ijobiy/salbiy)
- chegaraviy kengayish (masalan, mahalliy, mintaqaviy, global)
- davomiyligi (doimiy/vaqtinchalik)
- davr (darhol / kechiktirilgan)
- qaytuvchanlik (qaytariladigan/qaytarilmas)
- sodir bo'lish ehtimoli (yo'q, kichik, o'rta, yuqori).

Reseptorlarning sezgirligi, ta'sir olib tashlanganidan so'ng o'zgarishni qabul qilish yoki o'zgarishdan tiklanish qobiliyatini hisobga oladi.

Ta'sir ko'lami (yuqori, o'rta, past) sezgirlik bilan birgalikda (yuqori, o'rta, past) ta'sirning ahamiyati toifasini quyidagicha belgilash uchun birlashtirildi:



Sxema 1. Jamiyat shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmidagi qadamlar (ShM)

- Muhim: ushbu ta'sirlar qaror qabul qilish jarayonida asosiy omillarni tashkil etadi. Ular odatda, lekin istisnosiz emas, yumshatish choralari amaliy yoki samarasiz bo'ladigan ta'sirlar bilan bog'liq.
- Asosiy: Ushbu ta'sirlar sezilarli bo'lishi mumkin, ammo yumshatish samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan hollarda o'rtacha yoki ahamiyatsiz darajada salbiy ta'sirga olib keladi.
- O'rtacha: Ushbu ta'sirlar, agar noqulay bo'lsa ham, muhim bo'lsa ham, qaror qabul qilishning asosiy masalalari bo'lishi mumkin emas.
- Kichik: Ushbu ta'sirlar kuchayishi mumkin, ammo qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lmaydi.
- Neytral: Hech qanday ta'sir yo'q, muhim emas, qaror qabul qilish jarayonida hal qiluvchi omil sifatida ko'rib chiqishning hojati yo'q.

AITB ni amalga oshirishda e'tiborga olish kerak bo'lgan aniq sohalarga batafsil amaliy arxeologik tadqiqotlar bilan qo'llab-quvvatlanadigan arxeologik ta'sir, shovqin, havo sifati, tuproq kabi jismoniy ta'sir va ijtimoiy ta'sir, masalan, turmush tarzi, ishchilar oqimi, ta'minot zanjiri, aholi salomatligi va xavfsizligi, bandlik va mehnat huquqlari va ishchilarning farovonligi kiradi. Atrof-muhitga ta'siri ham baholandi, loyiha maydoni o'tmishdagi va hozirgi qishloq xo'jaligi faoliyati tufayli tabiatni muhofaza qilish ustuvor bo'lgan hudud deb hisoblanmaydi.

AITB da belgilangan yumshatish, boshqarish va monitoring choralari AIBR (IV jild) doirasiga kiritilgan bo'lib, unda rivojlanish siklining turli bosqichlari uchun asosiy qoidalar bayon etilgan. Egasi va XMQ pudratchisi, shuningdek, AIBR doirasini rivojlantirish uchun bir qator individual mavzularni boshqarish rejalarini ishlab chiqadi.

Yumshatish choralari ta'sir ahamiyatini maqbul darajaga (qoldiq ahamiyatlilik) kamaytirish uchun oldini olish, kamaytirish/minimallashtirish, yumshatish va kompensatsiya/qoplashdan iborat yumshatish ierarxiyasiga muvofiq belgilangan. Barcha pudratchilar AIBR asosli talablariga rioya qilish uchun o'zlarining siyosatlari, rejalar va tartib-qoidalariga ega ekanligini namoyish etishlari talab qilinadi. Masdar, Loyiha kompaniyasi va Kreditorlar yoki ularning vakillari AIBR doirasi talablariga muvofiqligi bo'yicha ishlarni muntazam ravishda tekshiradilar.

3.3 Manfaatdor tomonlarni jalb qilish

AITB jarayonining muhim qismi mahallalar (zaif guruhlar ham kiradi) va boshqa manfaatdor tomonlar guruhlar (birgalikda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) bilan maslahatlashuvlardir. Manfaatdor tomonlar, xususan to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rgan aholi bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnatish uchun manfaatdor tomonlar bilan o'zaro

munosabatlarga (MJ) tizimli yondashuv qo'llanildi. Mavjud va kelajakdagi o'zaro jalb qilish rejalari "Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi" (MJR) deb nomlangan loyihaning aloqa rejasida ko'rsatilgan. MJ 2023-yil fevral oyida dastlabki loyiha maydonidagi o'rganishlar bilan boshlandi va loyihaning butun muddati davomida davom etadi (qurilish, ekspluatatsiya, foydalanishdan chiqarish).

Loyiha doirasida turli manfaatdor tomonlar bilan jamoatchilik uchrashuvlari va yakkama-yakka uchrashuvlar o'tkazildi, jumladan:

- Kompensatsiyani oshkor qilish jarayonidan oldin yerni olish talablari to'g'risida ma'lumot berish uchun fermerlar bilan uchrashuvlar (2025 yil may).
- Loyihani amalga oshirish tumanlarida NTH to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish (To'rtta TD mahalla va ikkita shahar hokimligining har bir mahalliy davlat idoralariga NTHning sakkizta bosma nusxasi taqdim etildi.)
- AITB loyihasi natijalarini oshkor qilish uchun AITB ijtimoiy yig'ilishlari (2024 yil iyul).
- ATB jamoatchilik muhokamalari (2024 yil iyul).
- Davlat organlariga (respublika, viloyat, shahar va tuman boshqarmalari/hokimliklari), shu jumladan G'uzor hokimiyati va Qamashi hokimiyatining kadastr bo'limlariga (2024 yil fevral va undan keyingi rejalashtirishdagi o'zgarishlarga qarab) xatlar.
- Xatlar va quyidagilar bilan uchrashuvlar:
 - Viloyat sanoat korxonalari, jamoatchilik rahbarlari
 - Loyihadan ta'sirlangan jamoalar (Yangiobod, Xalqobod, Batosh va Oynakul jamoalari)
 - Yangiobod, Xalqobod, Batosh va Oynakul jamoalari vakillari
 - Yerdan rasmiy foydalanuvchilar (Qamashi tumani hokimiyati, SEFB qo'mitasi, ijarachilar (7 ta fermer xo'jaliklari, 1 ta MCHJ) ;
 - Yerdan norasmiy foydalanuvchilar;
 - G'uzor va Qamashi tumanlarining sanitariya epidemiologiya farovonlik boshqarmalari
- Ayollar bilan maqsadli uchrashuvlar.
- Norasmiy yerdan foydalanuvchilar (chorvadorlar) bilan maqsadli uchrashuvlar.
- G'uzor tuman hokimligi, Qamashi tuman hokimligi, Botanika instituti, Madaniy meros agentligi, Geologiya vazirligi, Madaniy meros vazirligi, arxeologiya instituti va SEFB ga xatlar.

AITB loyihasi va yakuniy hujjatlari loyiha kompaniyasi va kreditor veb-saytlariga joylashtiriladi.

Quyidagi rasmlarda bajarilgan ba'zi ishlar ko'rsatilgan.

Rasm 9: mahalliy ishchi, Oynakul jamoasi



Manba: Juru

Rasm 10: Yangiobod jamosi a'zolari



Manba: Juru

Rasm 11: Batosh jamosi a'zolari



Manba: Juru

12-Rasm: G'uzor Tuman Hokimligi



Manba: Juru

Manfaatdor tomonlar tomonidan bildirilgan sharhlar va mulohazalar maslahat tadbirlarida qayd etildi va hisobga olindi. Qabul qilingan sharhlar:

- Loyiha hududida yoki uning yaqinida turmush tarzini davom ettirish istagi – bu imkoniyat loyiha hududining joylashuvi va qanday variantlar mavjud bo'lishi mumkinligi bo'yicha tushuntirish orqali izohlandi.
- Ishga joylashish imkoniyatlarining mavjudligi - iloji bo'lsa, mahalliy aholi vakillarini ishga joylashtirishga ustuvor ahamiyat berilishi tushuntirildi.
- Qurilish vaqtida mahalliy aholi bilan doimiy aloqada bo'lish istagi - loyiha qurilish va ekspluatatsiya vaqtida mahalliy aholi bilan aloqada bo'lish uchun jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis (ABM) tayinlanishi tushuntirildi.


- Suv ta'minoti va jamoat infratuzilmasining boshqa imkoniyatlarini yaxshilash imkoniyatlari ehtimoli - Masdar qurilish bosqichida qo'shimcha muhokama qilinadigan tavsiyalarni e'tiborga oldi.

Loyiha bo'yicha hozirgacha amalga oshirilgan manfaatdor tomonlar ishtirokining to'liq ro'yxati V jild: MJR da keltirilgan va II jild: AITB da umumlashtirilgan. Turmush tarzini tiklashga kompensatsiya va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni batafsil ko'rib chiqish quyida keltirilgan va VI jild: TTTR da batafsilroq yoritilgan.

3.4 Shikoyat mexanizmi (ShM)

Manfaatdor tomonlar duch kelishi mumkin bo'lgan har qanday muammo, tashvish yoki savollar ("shikoyatlar") ShM orqali loyihaga yetkazilishi mumkin. Manfaatdor tomonlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmi loyiha qurilish bosqichida amalga oshiriladigan Sog'liqni saqlash, Xavfsizlik, Ijtimoiy va Atrof-muhitni boshqarish tizimining bir qismi hisoblanadi. ShM loyihaning barcha muammolarni tan olish, tekshirish va ularga javob berish bo'yicha majburiyatlarini belgilaydi. Ushbu usullarning har biri uchun aloqa ma'lumotlari kirishda va ushbu bo'lim oxiridagi 3-jadvalda keltirilgan. Loyihaning shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi bo'yicha manfaatdor tomonlar bilan olib borilgan keyingi maslahatlashuvlar davomida ularning doimiy xabardor qilinishi ta'minlangan. ShMdan foydalanish uchun aloqa ma'lumotlari quyida keltirilgan.

Sxema 2: Aholining shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmidagi qadamlar (ShM)



ShM dagi qadamlar 2-sxemada keltirilgan. Shikoyat quyidagi yo'llar bilan berilishi mumkin:

- Uchrashuvlar yoki maydonga tashriflar vaqtida to'g'ridan-to'g'ri loyiha xodimlariga va qo'riqchilarga.
- Telefon qo'ng'iroqlari orqali.
- Yozma shaklda (matnli xabarlar, elektron pochta orqali, mobil ilovalar, xatlar, yozma so'rovlar).
- Hokimlikning tuman idoralarida, Batosh, Oynakul, Xalkobod va Yangiobod jamoat idoralarida shuningdek loyiha darvozalarida joylashgan qutilarda (qurilish boshlanganidan keyin)

- Masdar veb-sayti orqali.

ShM ma'lumotlarning **shu jumladan barcha ariza beruvchilarning shaxsiy ma'lumotlarining qat'iy maxfiyligini saqlaydi**. Barcha shikoyatlar **anonim tarzda topshirilishi mumkin**. Arizachi shikoyatga taklif qilingan yechim/javobdan qoniqmagan hollarda shikoyatni hal qilish uchun boshqa huquqiy choralar ko'rish huquqiga ega Loyiha bilan bog'liq JZT shikoyatlar yuqoridagi usullar orqali ham berilishi mumkin, ammo ular tekshirish va jabrlanganlarga yordam berish uchun JZT bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ixtisoslashgan qo'mitaga yuboriladi.

1-qadam: Shikoyatni har qanday aloqa usuli bilan olgandan so'ng, shikoyatni ko'rib chiqish menejeri ko'tarilgan barcha muammolar/masalalarni tekshirish va ko'rib chiqishni ta'minlash uchun uni shikoyat jurnaliga kiritadi.

2-qadam: Shikoyatni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazgandan so'ng, ariza beruvchi so'rovga va javobni qabul qilishning dastlabki vaqtiga qarab tekshiruvning taxminiy muddatini o'z ichiga olgan yozma xabarnoma oladi. Shikoyatlarni ro'yxatdan o'tkazish shakli va jurnali olingan har bir shikoyatni kuzatishga imkon beradi.

3-qadam: AITB maslahatchilari guruhining tayinlangan a'zolari loyihaning AITB bosqichida shikoyatlarni qabul qilish va nazorat qilish uchun javobgardir (bu javobgarlik AITB bosqichi tugagandan so'ng JABM yoki Masdar shikoyat bo'yicha menejeriga topshiriladi). Shikoyat shakli manfaatdor tomonlarning joylashuvi, ularning til afzalliklari va aloqa imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Javoblar arizachi uchun qulay bo'lgan tilda, ya'ni o'zbek yoki rus tillarida taqdim etiladi.

4-qadam: Shikoyat bo'yicha qaror ariza beruvchiga rasmiy yozma ravishda xabar qilinadi. Agar ariza beruvchi yozma javob ololmasa, ular bilan telefonda bog'lanib, shikoyatini ko'rib chiqish natijasi haqida xabardor qilinadi. Quyidagi jadvalda shikoyatlarni ko'rib chiqish muddati ko'rsatilgan. Agar ariza beruvchi javobdan qoniqmasa, apellyatsiya shikoyati berilishi mumkin. Bundan tashqari, ShM orqali shikoyat qilish arizachini milliy huquqiy tizimga murojaat qilish imkoniyatidan mahrum qilmaydi va agar xohlasa, shikoyatchining shikoyatiga berilgan javobdan qoniqmasa, ushbu yo'ldan borishi mumkin. Shikoyatlarni hal qilish uchun qo'llaniladigan yondashuvlar ularning xususiyati, qanchalik tez-tez takrorlanishi va shikoyatlar soniga bog'liq bo'ladi.

Jadval 2: Shikoyatlarni ko'rib chiqish muddatlari

Bosqich	Muddati
Shikoyatni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish	Kun 0
Shikoyat arizachi tomonidan qabul qilinishini tasdiqlash	Shikoyat berilgandan keyin uch ish kunidan oshmagan holda
Olingan shikoyatni baholash / tekshirish	Shikoyat tasdiqlanganidan keyin 10 ish kunidan oshmagan holda.
Arizachiga javob berish	Baholash tugaganidan so'ng uch ish kunidan oshmagan holda.
Arziachi oldingi javobdan norozi bo'lganda shikoyatni qayta ko'rib chiqish	Ariza beruvchiga javobdan noroziligi to'g'risida xabar berilgandan keyin 10 ish kunidan oshmagan holda

Agar murakkab shikoyatlar yoki boshqa omillar tekshiruv vaqtini ko'paytirs, arizachi ushbu kechikish haqida xabardor qilinadi va yangilangan javob vaqtlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi va muntazam yangilanishlarni taqdim etib turiladi. Agar shikoyat loyiha darajasida hal etilmasa, u Shikoyat qo'mitasiga topshirilishi mumkin.⁷

Jadval 3: Shikoyat qilish uchun aloqa ma'lumotlari

Kompaniya	Aloqa ma'lumotlari
Juru Energy Viktoriya Filatova - Katta Maslahatchi	Email: o.khegayv.filatova@juru.org Telefon: +998 71 202 044090 941 43 71
Juru Energy Zarina Gafurova - Ijtimoiy masalalar bo'yicha maslahatchi	Email: z.gafurova@juru.org Telefon: +998 90 935 74 48
Loyiha Kompaniyasi JABM Namoz Axmedov	Email: nakhmedov@masdar.az Telefon: +998948418983
Loyiha kompaniyasi "Gross Plaza" Biznes markazi, 100060, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani Taras Shevchenko ko'chasi, 21a Telefon raqami: +998978686860	

⁷ Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi Masdar JABM va/yoki Shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha menejer tomonidan chaqiriladi va uning tarkibiga shikoyat mavzusiga tegishli shaxslar, shu jumladan loyiha obyekti boshqaruvchisi, mahalliy mahalla raisi, mahalliy mahalla va mahalliy hokimiyatdan erkak va ayol vakillari (ko'tarilgan shikoyat bilan bog'liq) kiradi.

4. Atrof-muhit va ijtimoiy baholashning qisqacha mazmuni

4.1 Qisqacha tavsifi

Ta'sir doirasi (AOI) aniqlangan har bir yo'nalish bo'yicha potensial ta'sirlar baholandi va qoldiq xavf AITB da ko'rsatilgan ta'sirni kamaytirish bo'yicha taklif qilingan chora-tadbirlar asosida baholandi. AITB da barcha qoldiq ta'sirlar o'rtacha yoki past darajadagi ahamiyatga ega.

Jadval 4: AITB da baholangan xavf va ta'sirlar

Atrof-muhit va sog'liq	Ijtimoiy	Mehnat
• Havo sifati (Q/FCH). • Shovqin va tebranish (Q/FCH) • Chiqindilar (shu jumladan xavfli chiqindilar) (Q/E/FCH) • Iqlim o'zgarishiga bardoshlilik • Tuproq va geologiya (Q/FCH) • Suv resurslari (Q/FCH). • Hidrogeologiya (shu jumlada toshqin xavfi) (Q/FCH) • Biologik xilma-xillik (yashash joylarining yo'qolishi, muhim yashash joylariga ta'siri va POB) • Umumiy ta'sirlar (Q)	• Jamiyat salomatligi va xavfsizligi (Q/E/FCH) • Yo'l harakati va transport (Q/FCH) • Xavfsizlik (Q/FCH) • Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va unga javob berish (Q/E/FCH) • Turmush tarzi va yerdan foydalanish (Q) • Madaniy meros (Q)	• Mehnat salomatligi va xavfsizligi (Q/E/FCH) • Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va unga javob berish (Q/E/FCH) • Mehnat huquqlari (Q/E/FCH) • Bandlik (ijobiy) (Q/FCH) • Jinsga asoslangan zo'ravonlik va ta'qib (JZT) (Q/FCH) • Inson huquqlari (Q/E/FCH) • Xarid/ta'minot zanjiri (Q/E/FCH)

O'rganildi:

- Havo sifati (ekspluatatsiyada)
- Shovqin
- Tuproqlar (ekspluatatsiyada)
- Landshaft va vizual ta'sir (Q/FCH) (shu jumladan pirillash va aks ettirish)
- Radio va televidenie shovqinlari (barcha bosqichlarda)
- Yo'l harakati va transport (ekspluatatsiyada)
- Issiqxona gazlari
- Madaniy meros (ekspluatatsiyada)
- Umumiy ta'sirlar (ekspluatatsiyada)
- Mahalliy Aholilar
- Transchegaraviy ta'sirlar
- Xavfsizlik (E)
- EMF/ET (E)

4.2 Ijobiy ta'sirlar va yaxshilanishlar

AITB quyidagi potentsial ijobiy ta'sirlarni aniqladi:

- Vaqtinchalik va doimiy ish o'rinlarini yaratish (shu jumladan mahalliy aholi va ayollar uchun ish o'rinlarining ustuvorligi);
- Bilvosita biznes imkoniyatlarini yaratish/kengaytirish (oziq-ovqat yetkazib berish, haydash, joylashtirish, mahalliy materiallarni sotish (sement, uskunalar))
- Yanada barqaror va diversifikatsiyalangan elektr tarmog'i; va
- Toza energiya ishlab chiqarish/uglerod/milliy issiqxona gazlari (IG) chiqindilarini kamaytirish

4.3 Mehnat, ta'minot zanjiri boshqaruvi va ishchilar salomatligi va xavfsizligi

Masdar loyihaning butun davri davomida adolatli mehnat va ish amaliyotini targ'ib qilish bo'yicha aniq majburiyatlarga ega. Ushbu muammoni hal qilish uchun loyiha ishchilarning xulq-atvor kodeksi, xavfsizlik xodimlarining xulq-atvor kodeksi va mehnat sharoitlarini boshqarish rejasini ishlab chiqadi. Shuningdek, mahalliy aholi va ayollar uchun ish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun mehnatni muhofaza qilish va ish sharoitlari rejasi va gender boshqaruv rejasi ishlab chiqiladi.

Loyiha o'z pudratchilari va subpudratchilaridan har doim milliy mehnat qoidalariga va *XMK IS2: mehnat va ish sharoitlari, YeTTB IT2 Mehnat va ish sharoitlari hamda OTB Himoya*

Siyosati Bayonoti talablariga rioya qilishlarini talab qiladi. XMK IS2, YeTTB IT2 va OTB HSB ish o'rinlari yaratish va daromad olish orqali iqtisodiy o'sishga intilish ishchilarning asosiy huquqlarini himoya qilish, jumladan, xilma-xillikni, adolatli ish haqini, dam olish vaqtini, kamsitilmaslikni, ish vaqtini tartibga solishni va qo'shimcha ish vaqtini rag'batlantirish bilan birga bo'lishi kerakligini tan oladi. Loyiha, boshqa narsalar qatori, MXQ va uning subpudratchilarining barcha xodimlari xodimga imzolanishidan oldin tushuntiriladigan mehnat shartnomasiga ega bo'lishini va xodimga ushbu shartnomaning nusxasi berilishini ta'minlaydi. Mehnat auditlari ish haqi miqdori, qo'shimcha ish soatlari va ish haqi, chegirmalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan hisob-kitob varaqalarini berishni, shuningdek, ularning to'g'riligini tasdiqlashni ta'minlaydi.

Masdar kompaniyasi panel va akkumulyatorlarni yetkazib berish zanjiri siyosatini olib boradi va barcha yetkazib beruvchilardan Masdar biznes sheriklarining xulq-atvor kodeksiga (XAK) rioya qilishni talab qiladi. XAK, xususan, yetkazib beruvchining xalqaro mehnat tashkilotlari konventsionalari va yurisdiksiya qonunlariga rioya qilishini, shuningdek, zamonaviy qullikning har qanday shaklida ishtirok etishni yoki bolalar mehnatidan foydalanishni taqiqlashni ko'rib chiqadi. Shartnomalarni imzolashdan oldin yetkazib beruvchi Masdarning axloq va muvofiqlik jamoasi tomonidan tayinlangan tashqi tashkilot tomonidan o'tkaziladigan ishonchlilik tekshiruvidan o'tishi kerak. MMT sifatida Source Trading korporativ siyosat va tartib-tamoyillar, shuningdek, MMT sotib olish siyosati va tartib-tamoyillarida ko'zda tutilgan raqobatbardosh, shaffof va adolatli tender tamoyillariga amal qiladi. Shartnoma bo'yicha muzokaralar jarayoni sanksiyalar, XMT, kreditorlarning maxsus talablari, eksport nazorati muvofiqligini ta'minlash uchun barcha kerakli havolalar, yumshatish choralari va shartnoma huquqlarini o'z ichiga oladi. Barcha holatlarda Masdar mehnat qoidabuzarliklariga mutlaqo yo'l qo'ymaydi.

Ishchilar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablar, masalan, maydonni tozalashda yoki elektr energiyasi, harakatlanuvchi mexanizmlar va balandlikda ishlashda, Mehnat salomatligi va xavfsizligi rejasida (MSX) aniqlanadi va ishlashga ruxsat berish tizimi orqali amalga oshiriladi. MSX rejasi muayyan faoliyat bilan bog'liq xavflarni baholash va xavfsizlikni nazorat qilish, o'qitish va shaxsiy himoya vositalari (SHV) kabi zarur xavfsizlik choralarini belgilash talablarini o'z ichiga oladi. MSX rejasining samaradorligi muntazam tekshiruvlar, auditlar va monitoring, shu jumladan sog'liqni saqlash monitoringi orqali nazorat qilinadi. Barcha ishchilar ishchilarning ShM foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu muhim jarayon bo'lib, ishchilar yomon amaliyotlarni bartaraf etishlari mumkin. Turar-joylarni boshqarish (maydonda va tashqarida) milliy standartlarga, kreditorlarning tavsiyalariga va YXSAg muvofiq amalga oshiriladi.

4.4 Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va unga javob berish

